TOSHKENT SHAHAR YUNUSOBOD TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 19 - sentabr 232-14-206-Q/23 Yunusobod tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar va bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2023-yil 31-avgustdagi 434-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar va bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2023-yil 31-avgustdagi 434-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar va bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2023-yil 31-avgustdagi 434-son qarori ijro uchun qabul qilinsin va mazkur qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.

2. Yunusobod tumani hokimining ayrim qarorlariga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin .

3. Yunusobod tumani hokimining o‘rinbosarlari (D.Muxsimova,

J.Nabiyev), tegishli boshqarma va tashkilotlar:

o‘zlarining idoraviy hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023- yil 31-avgustdagi 434-sonli qaroriga muvofiqlashtirsinlar.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Yunusobod tumani hokimining o‘rinbosarlari D.Muxsimova va J.Nabiyevlar zimmasiga yuklansin.

Yunusobod tuman hokimi **B.A.Abduvaliyev**

Yunusobod tuman hokimining
2023-yil 19-sentabrdagi
232-14-206-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Yunusobod tumani hokimining o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilayotgan ayrim qarorlari ro‘yxati

1. Yunusobod tumani hokimining 2014-yil 30-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentyabrdagi 269-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 804-sonli qarorining 2-bandi ikkinchi xatboshisidagi “davlat reyestri” so‘zlari “axborot tizimi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. Yunusobod tumani hokimining 2021-yil 31-maydagi 291-son qarori ilovasi bilan tasdiqlangan “Toshkent shahar hokimligi boshqaruv apparati to‘g‘risida Nizom”ning 10-bandi birinchi xatboshidagi, 11-bandidagi, 12-bandi birinchi xatboshidagi ва 14-bandidagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyasining” so‘zlari “bolalar masalalari bo‘yicha komissiyasining” so‘zlari bilan almashtirilsin.

3. Yunusobod tumani hokimining 2017-yil 19-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 799-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 1391-sonli qarorida:

a) nomlanishi, muqaddimasi, 1-bandi, 2-bandining ikkinchi va to‘rtinchi, beshinchi xatboshilaridagi “Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” so‘zlari “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

Yunusobod tuman hokimining
2023-yil 19-sentabrdagi
232-14-206-Q/23-son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi “Xotin-qizlar va bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 434-sonli qarori yuzasidan

MA’LUMOT

1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi 212-son qarori ijrosi yuzasidan Toshkent shahar hokimining 2018-yil 27-martdagi 491-sonli qarori qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 434-sonli qarori bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlarga ta’siri yo‘q.

2. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi 212-son qarori ijrosi yuzasidan Toshkent shahar hokimining 2018-yil 27-martdagi 491-sonli qarori qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 434-sonli qarori bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlarga ta’siri yo‘q.

3. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi 322-sonli qarori ijrosi yuzasidan Toshkent shahar hokimining 2018-yil 11-maydagi 730-sonli qarori qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 434-sonli qarori bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlarga ta’siri yo‘q.

4. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-noyabrdagi 971-son qarori ijrosi yuzasidan Toshkent shahar hokimining 2018-yil 6-dekabrdagi 1764-sonli qarori qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 434-sonli qarori bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlarga ta’siri yo‘q.

5. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-son qarori Toshkent shahar hokimiyatiga rasmiy ravishda kelib tushgan, Toshkent shahar hokimining qarori qabul qilinmagan.

6. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-avgustdagi 473-son qarori Toshkent shahar hokimiyatiga rasmiy ravishda kelib tushgan, Toshkent shahar hokimining qarori qabul qilinmagan.

7. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 339-son qarori Toshkent shahar hokimiyatiga rasmiy ravishda kelib tushgan, Toshkent shahar hokimining qarori qabul qilinmagan.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-oktyabrdagi 656-sonli qarori ijrosi yuzasidan Toshkent shahar hokimining 2021-yil 1-noyabrdagi 412-14-0-Q/21-sonli qarori qabul qilingan bo‘lib, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi

434-sonli qarori bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlarga ta’siri yo‘q.

9. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 295-sonli qarori ijrosi yuzasidan Toshkent shahar hokimining 2022-yil 13-iyundagi 607-14-0-Q/22-sonli qarori qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 434-sonli qarori bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlarga ta’siri yo‘q.